10. Zhang, L. J., & Lu, X. (2017). The role of motivation in English as a foreign language reading and writing: An empirical study. *English Language Teaching*, 10(3), 49-58. <https://doi.org/10.5539/elt.v10n3p49>
11. Miller, J. P. (2003). *The holistic curriculum* (2nd ed.). OISE Press.
12. Pianta, R. C., & Allen, J. P. (2008). Teacher-student relationships and engagement: Conceptualizing, measuring, and improving outcomes. *Handbook of Research on Student Engagement*, 209-233. [https://doi.org/10.1007/978-0-387-97580-9\\_10](https://doi.org/10.1007/978-0-387-97580-9_10)
13. Appleton, J. J., Christenson, S. L., & Furlong, M. J. (2008). Student engagement with school: Critical conceptual and methodological issues of the construct. *Educational Psychology Review*, 20(3), 367-389. <https://doi.org/10.1007/s10648-008-9085-4>



## DAVLAT ISHSIZLIK NAFAQALARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Sobirxo'jayev Xadyatillo Billoxon o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

E-mail: [xadyatillo2004@gmail.com](mailto:xadyatillo2004@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada davlat ijtimoiy funksiyalarining biznes muhitiga, aholi daromadlari va bandligiga ta'siri tahlil qilinadi. Ijtimoiy nafaqalar va ishsizlik sug'urtasi tadbirkorlik tashabbuslarini susaytirishi va soliq yukini oshirishi mumkinligi, natijada iqtisodiy faollik pasayishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotda iqtisodiy nazariyalar va empirik ma'lumotlar asosida davlat aralashuvining uzoq muddatli salbiy oqibatlari muhokama qilinadi. Natijalar davlat siyosati va biznes rivojlanishi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Davlat, ijtimoiy transfer, biznes, aholi daromadi, ishsizlik, davlat aralashuvi, iqtisodiy faollik, soliq yuklari, bandlik siyosati.

**Аннотация:** В статье анализируется влияние социальных функций государства на бизнес-среду, доходы населения и занятость. Отмечается, что социальные выплаты и страхование от безработицы могут ослаблять предпринимательские инициативы и увеличивать налоговую нагрузку, что в конечном итоге снижает экономическую активность. В исследовании обсуждаются долгосрочные негативные последствия государственного вмешательства на основе экономических теорий и эмпирических данных. Результаты подчеркивают необходимость обеспечения баланса между государственной политикой и развитием бизнеса.



**Ключевые слова:** Государство, социальные трансферты, бизнес, доходы населения, безработица, государственное вмешательство, экономическая активность, налоговая нагрузка, политика занятости.

**Abstract:** The article analyzes the impact of the government's social functions on the business environment, household income, and employment. It highlights that social benefits and unemployment insurance may weaken entrepreneurial initiatives and increase the tax burden, which can ultimately reduce economic activity. The study discusses the long-term negative consequences of government intervention based on economic theories and empirical data. The findings emphasize the need to maintain a balance between government policy and business development.

**Keywords:** Government, social transfer, business, household income, unemployment, government intervention, economic activity, tax burden, employment policy.

Zamonaviy davlatlar iqtisodiyotning turli jabhalariga faol aralashib, ijtimoiy adolatni ta'minlash va aholining turmush darajasini oshirish maqsadida keng ko'lamli sotsial dasturlarni amalga oshirmoqda. Ushbu dasturlar ishsizlik sug'urtasi, ijtimoiy nafaqalar, kam ta'minlangan qatlamlarga moliyaviy yordam va boshqa turdagi sotsial imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Mazkur chora-tadbirlar qisqa muddatli istiqbolda aholining farovonligini oshirishga xizmat qilishi mumkin, biroq uzoq muddatli iqtisodiy ta'siri yuzasidan akademik doiralarda jiddiy bahs-munozaralar mavjud. Davlat tomonidan taqdim etilayotgan sotsial imtiyozlar va moddiy yordam dasturlari biznes muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, bunday siyosat iste'mol darajasini oshirish orqali umumiy iqtisodiy faollikka ijobiy ta'sir o'tkazishi



mumkin. Biroq, boshqa tomondan, sotsial xarajatlarning ortishi davlat byudjetining defitsitga uchrash xavfini oshiradi va soliqlar yuklamasini ko'paytiradi. Shu bilan birga, ishsizlik nafaqasi va boshqa davlat yordami shakllari mehnat bozoridagi rag'bat tizimini o'zgartirishi, iqtisodiy faollikni pasaytirishi va tadbirkorlik tashabbuslarining susayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Yuqori soliq yuklamalari va davlatning ortib borayotgan sotsial majburiyatlari xususiy sektorning rivojlanishini sekinlashtiradi, sarmoyaviy faollikni pasaytiradi hamda iqtisodiy innovatsiyalarni cheklaydi. Shuningdek, uzoq muddatli istiqbolda davlatning haddan tashqari sotsial yuki mehnat unumdorligining kamayishiga va davlat byudjetining barqarorligi masalasiga xavf tug'diradi. O'zbekistonda ishsizlik nafaqalari keng va uzoq muddatda mavjud emas. Biroq, so'nggi ijtimoiy rejalar ayni masalani kun tartibiga kiritmoqda. Ishsizlik nafaqalari o'rta va pastki qatlamni himoya qilishda keng qo'llaniluvchi usul bo'lsa-da, uning amaliy ta'sirlari va istiqboldagi ahamiyati bahsli. Maqolada ushbu muammolar iqtisodiy tahlil va empirik ma'lumotlar asosida baholanadi, bu esa siyosatchilar, iqtisodiy tadqiqotchilar hamda davlat boshqaruvi vakillari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida davlatning ijtimoiy siyosatini takomillashtirish va biznes rivojlanishini rag'batlantirish bo'yicha muvozanatli yondashuvni shakllantirishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar Sharhi**

Iqtisodiy adabiyotda davlatning sotsial xarajatlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha qarashlar turlicha. Barro va Sala-i-Martin (1992) tadqiqotlarida davlat xarajatlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan bo'lib, haddan tashqari sotsial dasturlar iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirishi mumkinligi ta'kidlangan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan taqdim etilayotgan ortiqcha imtiyozlar resurslarning samarali



taqsimlanishiga to'sqinlik qilishi va xususiy sektorning investitsion faolligini cheklashi mumkin.

Boshqa tomondan, Esping-Andersen (1990) tomonidan ishlab chiqilgan farovonlik davlatlari modeli davlatning sotsial majburiyatlari jamiyatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ilgari suradi. Tadqiqotda, ayniqsa, Skandinaviya mamlakatlarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan sotsial siyosatlar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlayotgani qayd etilgan. Ushbu modelga ko'ra, davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya dasturlari mehnat unumdorligi va aholi salomatligi darajasini oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashishi mumkin. Ishsizlik sug'urtasi va boshqa sotsial yordam dasturlarining mehnat bozori ishtirokchilariga ta'siri iqtisodiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Krueger va Meyer (2002) o'z tadqiqotlarida ishsizlik nafaqalarining bandlik darajasi va ish qidirish jarayonlariga ta'sirini o'rganib, uzoq muddatli ishsizlik darajasi oshishi bilan davlat tomonidan beriladigan yordam o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini aniqlashgan.

Boshqa tomondan, Card va Levine (2000) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mehnat bozoridagi rag'bat tizimining muvozanatli bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar sotsial nafaqalar ishsizlarning yangi ish topish motivatsiyasini pasaytirishi mumkinligini qayd etgan. Shu bilan birga, mehnat bozori sharoitlariga qarab, bunday dasturlar vaqtinchalik daromad yo'qotishlarining oldini olishga xizmat qilishi va ijtimoiy beqarorlikni kamaytirishi ham mumkin. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlar fiskal barqarorlik masalasini ham dolzarb qiladi. Reinhart va Rogoff (2010) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davlat qarzining ortishi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. Ularning xulosasiga ko'ra, haddan tashqari sotsial xarajatlar davlat byudjetining defitsitga uchrashiga olib kelishi mumkin, bu esa uzoq



muddatda makroiqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Mankiw (2013) davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvi bo'yicha tadqiqotlarida sotsial dasturlar va soliq yuklamalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ko'rsatib o'tadi. Shu bilan birga, kam ta'minlangan qatlamlarga yo'naltirilgan davlat dasturlari ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

### **Metodologiya**

Ushbu tadqiqotda hukumat tomonidan beriladigan ijtimoiy nafaqalarning ishsizlar va kambag'allarga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, empirik ma'lumotlarni solishtirish va nazariy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Dastlab mavzu bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va akademik maqolalar tahlil qilindi. Bu jarayonda ishsizlik nafaqalarining iqtisodiy oqibatlari, odamlarning mehnat bozoridagi xatti-harakati va davlat ijtimoiy siyosati bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarga asoslangan taqqoslashlar olib borildi. Keyin esa rasmiy statistik ma'lumotlardan, xususan, hukumat hisobotlari, xalqaro tashkilotlarning (Jahon Banki, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Ushbu ma'lumotlar yordamida ijtimoiy nafaqalar va ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga harakat qilindi. Tahlil usuli sifatida iqtisodiy modellashtirish va empirik natijalarga asoslangan regresion tahlil qo'llanildi. Ushbu yondashuv yordamida davlat tomonidan beriladigan nafaqalar va insonlarning iqtisodiy faoliyati o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligi baholandi. Tadqiqotning nazariy jihatini chuqurroq o'rganish maqsadida, klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalarga tayanildi.

### **Natijalar va munozara**



Ishsizlik jamiyatning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri bo'lib, uning oldini olish va kamaytirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ishsizlikdan chiqish uchun ikki usul mavjud: yangi ish topish yoki o'z biznesini tashkil etish. Mamlakatdagi ishsizlik uchun kompensatsiya tizimi shaxsning ishsizlikdan chiqish motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunda shaxsning nafaqat ish topishga, balki o'ziga tegishli biznesni yaratishga bo'lgan xohishi ham muhim o'rin tutadi. Ishsizlik uchun beriladigan saxiy nafaqa yuqori iqtisodiy xarajatlarni anglatishi bilan birga, bunday nafaqa shaxsning ishsizlikdan chiqishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, shaxsning haq to'lanadigan ish izlashga yoki o'z biznes tashabbusini yaratishga bo'lgan intilishlarini susaytiradi (Robson, 2010).

Chetty (2008) tomonidan fanga kiritilgan "axloqiy xavf" effekti aynan saxiy nafaqalar sabab yuzaga keladi. Bu effektda ishsiz shaxslar ishsizlik holatida uzoqroq qolishni afzal ko'rishadi yoki faqat ishsizlik nafaqalari muddati tugashiga yaqin faol ish izlashga kirishadilar. Bu holat nafaqat ishsizlikdan chiqish imkoniyatlarini cheklaydi, balki iqtisodiyotning samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ishsiz shaxslar ish izlashni to'xtatib, yangi tashabbus boshlash qarorini qabul qilgan holatlarda, ishsizlik nafaqalari to'xtatilishi ehtimoli demotivatsiyani yanada kuchaytiradi. Bu shaxslar iqtisodiy jihatdan xavfsizlik tarmog'idan mahrum bo'lib, yangi tashabbusni amalga oshirishga bo'lgan qiziqishni yo'qotadilar. Shu sababli, saxiy nafaqalarning samaradorligini qayta ko'rib chiqish va ularning motivatsiyani oshirishga yo'naltirilgan shaklda qayta dizayn qilish zarurati mavjud.

Ishsizlik nafaqalari yetarlicha saxiy bo'lganda, xodimlar moliyaviy xavfsizlik hissini orttiradi va bu holat ularning kamroq harakat qilishiga yoki o'z vazifalariga mas'uliyatsiz yondashishiga olib kelishi mumkin. Ushbu xatti-harakat ilmiy adabiyotlarda "shirking" (mas'uliyatdan qochish) deb ataladi va u tashkilotlarning



samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, kompaniyalar xodimlarning samarali ishlashini ta'minlash uchun ularni nazorat qilish, monitoring qilish va rag'batlantirish kabi jarayonlarga qo'shimcha mablag' sarflashga majbur bo'ladi. Bu esa korxonalar uchun operatsion xarajatlarning oshishiga olib keladi va iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu salbiy ta'sirni kamaytirish va xodimlarning samaradorligini oshirish uchun kompaniyalar ko'pincha "samaradorlik maoshlari" (efficiency wages) tamoyilidan foydalanadilar. Bu usul bozor darajasidan yuqori maosh to'lash orqali ishchi unumdorligini oshirishga qaratilgan. Nazariy jihatdan, yuqori maosh xodimlarni o'z ishlariga mas'uliyatli yondashishga va shirkingdan voz kechishga undaydi, chunki ular yuqori daromadni yo'qotishdan qo'rqadilar. Shu bilan birga, bu yondashuv kompaniyaning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan raqobatbardoshligini saqlab qolishga yordam beradi (Kumar, 2012). Biroq, "samaradorlik maoshlari" tamoyilining joriy etilishi yangi tadbirkorlar uchun muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Yangi tashkil etilayotgan biznes korxonalari odatda moliyaviy resurslar bilan cheklangan bo'ladi, va ular ishchilarga bozor darajasidan yuqori maosh to'lash imkoniyatiga ega emaslar. Bu esa tadbirkorlarning yangi biznes boshlashga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Shu sababli, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda nafaqat ishsizlik nafaqalari tizimini, balki ularning tadbirkorlik, bandlikka ta'sirini ham hisobga olish muhimdir (Beladi & Kar, 2014).

Saxiy ishsizlik nafaqalari shaxslarning ish qabul qilish qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularning mehnat bozoridagi xatti-harakatlarini o'zgartiradi. Bunday nafaqalarning mavjudligi tufayli ishsiz shaxslar past maoshli yoki o'zlarining kutilmalariga mos kelmaydigan ish takliflarini rad etishga moyil bo'ladilar. Nazariy jihatdan, bu jarayon "rezerv maosh" (reservation wage) tushunchasi orqali tushuntiriladi, ya'ni shaxsning ma'lum bir ishni qabul qilishga



rozi bo'lishi uchun talab qilinadigan minimal maosh miqdori oshadi (Mortensen va Pissarides, 1999). Shunday qilib, mehnat bozorida saxiy ishsizlik nafaqalari mavjud bo'lganda, ayrim shaxslar o'z ehtiyojlariga mos bo'lmagan ishlarni rad etib, uzoq muddat davomida yaxshiroq maosh va sharoitlarni kutishni afzal ko'rishadi. Bu esa ish qidirish jarayonining cho'zilishiga va iqtisodiy jihatdan ishsizlikning ixtiyoriy tanlov sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi. Laffineur va boshqalar (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki, saxiy ishsizlik nafaqalari shaxslarning mehnat bozoriga qaytish vaqtini kechiktirishi va natijada bandlik darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holat ishsizlik bozorida muvozanatning buzilishiga va ishchi kuchining samarasiz taqsimlanishiga sabab bo'ladi. Davlat tomonidan ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan siyosatlar ishlab chiqishda ushbu omillar hisobga olinishi zarur, chunki haddan tashqari saxiy nafaqalar qisqa muddatli moliyaviy himoya ta'minlansa ham, uzoq muddatda iqtisodiy faollikni pasaytirishi va mehnat bozorining inersiyasini oshirishi mumkin. Shu sababli, samarali iqtisodiy siyosat nafaqat ishsizlik nafaqalari darajasini belgilash, balki ularning mehnat bozoriga ta'sirini optimallashtirishni ham o'z ichiga olishi lozim.

Ishsizlik nafaqalari muddati uzaytirilishi ishsiz shaxslarning mehnat bozoriga qaytish vaqtini kechiktiradi va ishsizlik davrining uzayishiga sabab bo'ladi. Bu holat, asosan, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yangi ish topish zaruratini kamaytirishi va natijada ish qidirish jarayonining sustlashuvi bilan izohlanadi. Katz va Meyer (1990) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishsizlik nafaqalari muddati uzaytirilganida ishsiz shaxslar yangi ish qidirishga nisbatan kamroq harakat qilishadi va bandlikka qaytish ehtimoli pasayadi. Bunday tendensiya ayniqsa iqtisodiy inqirozlar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, 2020-yilda AQSh Federal Zaxira Bankining ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya sharoitida



haftasiga \$600 miqdoridagi qo'shimcha ishsizlik nafaqasi ishsizlikdan chiqish darajasini 22 foizga kamaytirgan. Bu shuni anglatadiki, nafaqalar darajasining oshirilishi va ularning muddati uzaytirilishi ishsizlikdan chiqish jarayonini sekinlashtirib, mehnat bozoridagi umumiy faollik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, nafaqalar muddati uzoq bo'lgan hollarda ishsiz shaxslar yangi ish qidirishga nisbatan passivroq bo'lib qolishi, natijada mehnat bozoriga integratsiyalashuv jarayoni qiyinlashadi.

Saxiy ishsizlik nafaqalari odatda yuqori soliqlar va ijtimoiy badallar bilan hamohangdir, chunki davlat byudjetining ushbu xarajatlarni qoplash zarurati vujudga keladi. Bunda budjet tushadigan bosim, odatda, tadbirkorlar va biznesdan olinadigan marginal soliq hisobiga amalga oshadi. Yuqori soliq stavkalari esa iqtisodiyotning turli jabhalariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Amaldagi korxonalar nuqtayi nazaridan, soliqlarning ortishi ularning rentabelligini pasaytiradi va operatsion xarajatlarni oshiradi, bu esa investitsiya hajmining kamayishiga, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga hamda mehnat bozorida ish o'rinlari yaratish sur'atining sustlashishiga olib keladi. Shuningdek, yuqori soliqlar yangi tadbirkorlik tashabbuslari uchun ham jiddiy moliyaviy to'siqlar yaratadi. Biznes boshlash bilan bog'liq bo'lgan boshlang'ich xarajatlarning ortishi tadbirkorlikka kirishni qiyinlashtiradi va natijada yangi korxonalar sonining kamayishiga olib keladi (Parker, 2004). Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yuqori soliq yuklari ularning bozorga chiqish va raqobatbardosh bo'lish imkoniyatlarini cheklaydi, bu esa iqtisodiy rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, Hessels va boshq. (2008a) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soliqlarning yuqoriligi nafaqat biznes ochish qaroriga, balki mavjud tadbirkorlarning biznesni kengaytirish va investitsiya kiritish motivatsiyasiga ham salbiy ta'sir qiladi. Natijada, yuqori soliqlar ham mehnat bozorining rivojlanishiga,



ham tadbirkorlik muhitining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy faollik darajasining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ishsizlik nafaqasini olish uchun talab qilinadigan ish qidirish jarayonining hujjatlashtirilishi nafaqat ishsiz shaxslarga, balki ish beruvchilarga ham muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu talabning mavjudligi sababli, ba'zi ishsiz shaxslar haqiqiy ish topish niyatidan ko'ra, faqatgina davlatning ishsizlik nafaqasini olish shartlarini bajarish uchun arizalar topshirishadi. Natijada, ish beruvchilar turli vakansiyalar bo'yicha minglab murojaatlarni qabul qilishlariga to'g'ri keladi, lekin ushbu arizalarning aksariyati ishga kirish istagini emas, balki shunchaki ishsizlik nafaqasini davom ettirishga bo'lgan ehtiyojni aks ettiradi. Finlyandiya misolida, ayrim kompaniyalar bo'sh ish o'rinlariga juda ko'p sonli arizalar kelib tushayotganini qayd etishadi. Biroq bu arizalarning katta qismi faqatgina davlat talablarini bajarishga yo'naltirilgan bo'lib, real ish qabul qilish jarayonida ularning samaradorligi past bo'ladi. Ushbu holat esa ish beruvchilar uchun ortiqcha vaqt va moliyaviy xarajatlarni oshiradi. Kompaniyalar haqiqiy ish izlovchilarni aniqlash va mos nomzodlarni tanlab olish uchun qo'shimcha resurslar sarflashga majbur bo'lishadi, bu esa mehnat bozorining samaradorligini pasaytiradi va bandlik jarayonining optimalligiga salbiy ta'sir qiladi. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqot. 2001–2019-yillarda Yevropa Ittifoqining 23 mamlakati bo'yicha to'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda ushbu ta'sirlarni empirik jihatdan tasdiqladi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ishsizlik nafaqalari tizimining haddan tashqari saxiy bo'lishi tadbirkorlik tashabbuslarini cheklaydi, yangi ish o'rinlari yaratish jarayonini sekinlashtiradi va iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Schmieder et al, 2012)

Ishsizlik muddati uzaygani sari shaxslarning kasbiy malakalari va ijtimoiy kapitali ham sezilarli darajada zaiflashadi. Uzoq vaqt davomida ish bilan band bo'lmaslik natijasida ular ilgari egallagan ko'nikmalarini yo'qotishi yoki ularning



eskirib qolishi kuzatiladi. Ayniqsa, texnologik taraqqiyot tez kechayotgan sharoitda mehnat bozoridagi yangiliklardan ortda qolish ularga raqobatbardoshlikni saqlab qolish imkoniyatini kamaytiradi. Bundan tashqari, uzoq muddatli ishsizlik shaxsning ijtimoiy kapitaliga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi (Storey, 1991). Ish jarayonida shakllanadigan kasbiy tarmoq va professional aloqalar susayib, yangi ish imkoniyatlaridan xabardor bo'lish ehtimoli pasayadi. Natijada, uzoq vaqt davomida band bo'lmagan shaxslarning ishga qaytishi yanada qiyinlashadi. Ish beruvchilar uzoq muddat ishsiz bo'lgan nomzodlarni yollashga ehtiyotkorlik bilan yondashishadi, chunki ular bunday shaxslarning ishga qayta moslashish jarayoni uzoqroq vaqt talab qilishini hisobga oladilar.

### **Xulosa va takliflar**

Shunday qilib, ishsizlik nafaqalarining taqsimlanishida vaqtinchalik, shartlilik va rag'batlantiruvchanlik tamoyillarini uyg'unlashtirish davlatning iqtisodiy barqarorligini saqlab qolish bilan birga, ishsizlarning mehnat bozoriga tezroq qaytishini ham ta'minlaydi. Masalan, Daniyada joriy etilgan "flexicurity" modeli nafaqa oluvchini faollikka undash orqali mehnat bozoriga integratsiyani tezlashtiradi. Shu bilan birga, davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash maqsadida ishsizlik nafaqalariga ajratiladigan xarajatlar doimiy ravishda baholanib, resurslar iqtisodiy o'sish sur'atlariga mos tarzda qayta taqsimlanishi zarur. Texnologik rivojlanish mehnat bozori talablarini tez-tez o'zgartirib borayotgan hozirgi davrda, ishsizlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Germaniyaning dual ta'lim tizimi bunday yondashuvning muvaffaqiyatli namunasidir — bu tizim orqali nazariy ta'lim va amaliy ish tajribasi birgalikda olib boriladi, natijada bitiruvchilar ish beruvchilarning real ehtiyojlariga moslashadi.

O'zbekiston Respublikasida dual ta'lim Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari



haqida" gi qarori bilan tartibga solinadi. Mazkur tizim professional ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishni maqsad qilgan. Dual ta'limning asosiy tamoyili — o'quvchilarning bir vaqtning o'zida ta'lim muassasasida nazariy bilim olishlari va ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tashlari orqali kasbiy malakalarini oshirishdir. Shuningdek, dual ta'lim tizimi orqali korxonalar o'zlariga kerakli malakali kadrlarni tayyorlashda bevosita ishtirok etadilar, bu esa ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil oxiriga kelib, O'zbekistonda dual ta'lim tizimi bilan qamrab olingan o'quvchilar soni 50 ming nafarga yetishi kutilmoqda. Bu esa mamlakatda malakali kadrlar tayyorlash va mehnat bozorining ehtiyojlarini qondirishda muhim qadam bo'ladi.

Shuningdek, bandlik markazlari faoliyatini raqamlashtirish, ularga sun'iy intellekt asosida ishlaydigan avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish orqali, yordam pullarining noto'g'ri taqsimlanishini oldini olish va real ehtiyojmand guruhlarni aniqlash imkoniyati ortadi. Xulosa qilib aytganda, ishsizlik nafaqalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni noto'g'ri rag'batga aylantirmaslik va suiste'mollik holatlarining oldini olish uchun tizimli, natijador va texnologik yondashuvlar zarur. Bu orqali nafaqat bugungi ishsizlikka qarshi chora ko'riladi, balki kelajak avlodlar uchun iqtisodiy barqarorlik va yuqori bandlik darajasi ta'minlanadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Beladi, H., & Kar, S. (2014). Unemployment benefits and entrepreneurship. *Journal of Economic Behavior & Organization*, 102, 155-171.
2. Chetty, R. (2008). Moral hazard versus liquidity and optimal unemployment insurance. *Journal of Political Economy*, 116(2), 173-234.
3. Hessels, J., Van Gelderen, M., & Thurik, R. (2008). Entrepreneurial aspirations, motivations, and their drivers. *Small Business Economics*, 31(3), 323-339.
4. Katz, L. F., & Meyer, B. D. (1990). Unemployment insurance, recall expectations, and unemployment outcomes. *Quarterly Journal of Economics*, 105(4), 973-1002.
5. Kumar, A. (2012). Self-employment, efficiency wage, and public policies. *Economic Inquiry*, 50(4), 1069–1079.
6. Laffineur, C., Paul, M., & Sestier, J. (2017). Unemployment benefits and job search behavior: Evidence from a reform. *Labour Economics*, 46, 1-16.
7. Mortensen, D. T., & Pissarides, C. A. (1999). New developments in models of search in the labor market. *Handbook of Labor Economics*, 3, 2567-2627.
8. Nichols, A., Mitchell, J., & Lindner, S. (2013). Consequences of long-term unemployment. *Urban Institute Report*, 2013-04, 1-24.
9. Parker, S. C. (2004). The economics of self-employment and entrepreneurship. *Cambridge University Press*.
10. Robson, M. (2010). Unemployment insurance and the incentive to work. *Economic Journal*, 120(548), 245-265.
11. Storey, D. J. (1991). The birth of new firms—Does unemployment matter? *Small Business Economics*, 3(3), 167-178.



12. <https://www.newscientist.com/letter/mg24132222-600-conditions-on-benefits-harm-employers-too/>

13. Kruger, A. B., & Mueller, A. (2010). Job search and unemployment insurance: New evidence from time use data.

*Journal of Public Economics*, 94(3-4), 298-307.



**YANGI O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA INSON  
HUQUQLARINI SUD ORQAL-HIMOYA QILISHNING  
KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

**Ibragimova Sabrina Olim qizi**

**Nizomiy nomidagi TDPU, Milliy g‘oya,  
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi**

**[ibragimovaxror350@gmail.com](mailto:ibragimovaxror350@gmail.com)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida inson huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya etishning Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz zamirida belgilangan konstitutsiyaviy asoslari haqida so‘z yuritiladi. Inson, uning hayoti va qadr-qimmatini himoya etish davlat organlari, ayniqsa, sud tizimining ustuvor vazifasi sifatida malakatimiz doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar xususida fikrlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlari:** Inson huquqlari, erkinlik, sud tizimi, davlat organlari, islohot, konstitutsiyaviy asos.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются конституционные основы судебной защиты прав и свобод человека в системе законодательства Республики Узбекистан, заложенные в новой редакции нашей Конституции. Охрана человека, его жизни и достоинства рассматривается как приоритетная задача государственных органов, особенно судебной системы. Также приведены размышления о проводимых в нашей стране реформах в этой сфере.

**Ключевые слова:** права человека, свобода, судебная система, государственные органы, реформа, конституционная основа.



**Annotation:** This article discusses the constitutional foundations of judicial protection of human rights and freedoms within the legal system of the Republic of Uzbekistan, as outlined in the newly revised Constitution. The protection of the individual, their life and dignity is regarded as a top priority of state bodies, particularly the judiciary. The article also presents reflections on the reforms being carried out in this area within our country.

**Keywords:** human rights, freedom, judicial system, government agencies, reform, constitutional framework.

Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davrda inson huquqlari va erkinliklari, uning kafolatlarini ta'minlash, barcha islohotlarning zamirida inson manfaatlarining ko'zlanishi g'oyat katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi texnika va texnologiyalar asrida inson sha'ni, qadr-qimmatini va uning huquqlarini har jabhada himoya qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Inson eng oliy qadriyat darajasida ulug'lanishi ham uning konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. 2022-yil 26-yanvardagi Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning dastlabki ustuvor yo'nalishi ham aynan inson qadrini yuksaltirishga qaratilgandir.

Jahonning yetakchi davlatlari qatorida bugungi kunda o'zining siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy va har jabhada kundan kunga rivojlanib borayotgan Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlar yanada avj olmoqda, insonparvarlik prinsiplari ilgari surilmoqda. Inson, uning manfaatlari eng ustuvor vazifa sifatida ko'rilmogda. Buni 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida asosida qabul qilingan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda: "O'zbekiston



Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, unga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr -qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi “—deya belgilanishi orqali ham bilishimiz mumkin. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini davlat va davlat organlari orqali himoya etishning "inson—jamiyat—davlat" tizimi joriy etildi. Bularning barchasi inson, uning hayoti va qadr-qimmatini himoya etish va har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini sud organlari orqali himoya etish tizimining yanada takomillashtirilmoqda. Jumladan, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashda sud organlari tizimining yanada ochiqligi, xalqchilligi va shaffofligini ta‘minlash maqsadida " Elektron odil sudlov" tizimi joriy etildi aholi o‘z huquqlariga oid ma‘lumotlarni tez va oson, qulay usulda olish uchun [Advice.uz](https://Advice.uz) saytining imkoniyatlari yanada kengaytirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ko‘ra, aybdor shaxs o‘zining haq-huquqlarini himoya etishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilishi zarur. Hech bir fuqaro sud hukmisiz 48 soatdan ortiq muddatda hibsdan saqlanishi mumkin emasligi belgilangan va aybsizlik prezumpsiyasining bugungi kunda amaliyotga tatbiq etilganligi bu boradagi ishlar ko‘lamini yangi bosqichga ko‘tardi. Ilk marotaba insonlarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq barcha harakatlarga faqat qonunga muvofiq va sud qarori asosida yo‘l qo‘yilishi, AQSh fuqarolarni himoya etish tizimidagi " Miranda qoidasi" zamirida gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi shaxslarga "sukut saqlash" huquqining berilishi ham shular jumlasidandir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: “Sud binosiga kelgan har bir inson O‘zbekistonda adolat borligiga ishonib chiqib ketishi kerak. Bu Prezident talabi “,—deya ta‘kidlashlari ham inson huquqlarini himoya qilishda sud organlarning rolini



yanada kuchaytirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganligini ifodalasidir.

Yurtimizda sud- huquq tizimida "Xabeas korpus" institutining faoliyat doirasi kengaytirilganligi, qamoqga olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish uchun sanksiya berish vakolatining sudlarga o'tkazilishi inson huquqlari tizimining sud orqali himoya qilishning mazmunini bir muncha ochib berdi, desak, adashmaymiz. Shu ma'noda, mamlakatimiz aholisining mol-mulk, sog'liqni saqlash va har tomonlama huquqlarini qo'llab-quvvatlash, ularning poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, bola huquqlari, ayollar huquqlarining har qanday ko'rinishlarini kafolatlash sud organlari tizimining ustuvor vazifasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi davlat organlari, ayniqsa, sudlar tomonidan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni bevosita qo'llagan holda qarorlar qabul qilish amaliyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi so'zimizning isbotidir.

Bugungi kunda o'tgan davr nuqtayi nazaridan xolisona fikr yuritadigan bo'lsak, fuqarolarimiz endilikda sudya va advokatlar timsolida o'z sha'ning, qadr-u qimmatining posponlarini, mustahkam himoyachilarini ko'z oldiga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoniga muvofiq globallashuv sharoitida eng ko'p kuzatilayotgan va aholi o'rtasida turli xil qarashlarga sabab bo'layotgan "axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish "ham sud organlari zimmasiga yuklatildi. Avvalgi davrdan farqli ravishda mamlakatimizning har bir hududi, har bir shtat birliklarida sudlar tashkillashtirildi. O'lis manzillardagi aholimiz o'z huquqlarini himoya etish uchun endilikda uzoq masofadan kelishlari shart emas.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida tili, dini, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar har bir shaxsning qadr-u qimmatini qonunan



himoyalangan. Jumladan, davlat hokimiyatining uchinchi tarkibiy qismi sanalmish sud tizimida davlat lavozimlari, xususan, sudyalik lavozimi belgilanishida ham xalqaro gender tenglik masalasi ustuvor jihatlardan biri sifatida koʻzga tashlanadi. Yaʼni, xotin-qizlarning huquqlari insonparvarlik tamoyillariga mutanosib tarzda ushbu sohada ham kafolatlangan. Bundan tashqari, aholi uchun qulaylik yaratish uchun sud tizimi zamon bilan hamnafas tarzda raqamlashtirilmoqda, bu esa har xil qonunga xilof holatlarning kelib chiqishiga toʻsqinlik qilmoqda.

oʻrnida aytish kerakki, bugungi kunda adolat qoʻrgʻoniga aylanib borayotgan sud organlari va ularning tizimlari faoliyatida inson qadri, uning huquqlarini himoya etish eng yetakchi vazifa sifatida belgilab qoʻyildi. Buning asosi esa Yangi Oʻzbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida, Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlarda mustahkamlab qoʻyilmoqda. Har bir huquqiy asos, yuridik fakt inson manfaatlariga xizmat qilishi koʻzda tutilgan. Zero, insonni inson ekanligi uchun ulugʻlash, uning hayoti, erkinligi, shaʼni va qadr-qimmatini har tomonlama himoya etish har bir demokratik davlatning eng asosiy belgisidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. “ Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”. 30.04.2023.  
URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.”Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi." PF-6012-son qarori. 22.06.2020. URL: <https://lex.uz/docs/4872355?ONDATE2=30.04.2021&action=compare>
3. "Prezident—odil sudlov, korrupsiya, xususiy mulk himoyasi toʻgʻrisida".
4. 30.06.2020. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/30/justice/>



